

## EPISTOLYAR ADABIYOT VA UNING SHAKLLANISHI HAQIDA

Abdurayimova Irodaxon Iqboljon qizi,

*O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18931935>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada badiiy adabiyotdagi epistolyar janrning Sharq va G'arbda paydo bo'lishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari, bu janrda ijod qilgan namoyandalari haqida ma'lumotlar berilgan. Dunyo va o'zbek adabiyotida ushbu janr rivojiga hissa qo'shgan adib va shoirlar, ularning epistolyar janrdagi asarlari xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** epistolyar janr, maktub, genezis, sentimentalizm, antik davr, ma'rifatchilik adabiyoti.

**Annotation.** This article provides information about the emergence of the epistolary genre in fiction in both the East and the West, its historical stages of development, and the representatives who created works in this genre. It also discusses the writers and poets who contributed to the development of this genre in world and Uzbek literature, as well as their works written in the epistolary form.

**Keywords:** epistolary genre, letter, genesis, sentimentalism, antiquity, Enlightenment literature.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о возникновении эпистолярного жанра в художественной литературе на Востоке и Западе, его исторических этапах развития, а также о представителях, творивших в данном жанре. Рассматриваются писатели и поэты мировой и узбекской литературы, внесшие вклад в развитие эпистолярного жанра, а также их произведения, созданные в данной форме.

**Ключевые слова:** эпистолярный жанр, письмо, генезис, сентиментализм, античность, литература Просвещения.

**Kirish.** Epistolyar adabiyot maktub shakliga qurilgan janr bo'lib, boshqa janrlar ichida o'z o'rniga ega. Estetik jihatdan ta'siri kuchli ekanligi bilan ajralib turadi.

**Adabiyotlar tahlili.** "Adabiyotshunoslik lug'at" larida epistolyar janrga deyarli bir xil ta'riflar beriladi. Jumladan, rus adabiyotshunosi L.I.Timofeyev, S.V.Turayevlarning "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati"da shunday deyiladi: "Epistolyar shakl (yunoncha *epistola* – noma, maktub) –maktub va nomalar ko'rinishida yozilgan badiiy asarlardir. Umuman epistolyar adabiyotdan farqli ravishda, unga turli jamoat arboblarning publitsistik, siyosiy va shaxsiy maktublari kiradi, epistolyar shakl esa badiiy adabiyotning muayyan bir janri hisoblanadi." [4-469] Demak, nazariy lug'atda maktub badiiy asarlar uchun shakl sifatida ko'rinish berishi hamda uning mazmuniy jihatdan publitsistik, siyosiy, shaxsiy xatlar turi mavjudligi e'tirof etiladi. Shuningdek, epistolyar shakl badiiy adabiyotning muayyan bir janri ekanligi yuqorida ko'rsatilgan lug'at va boshqa nazariy manbalarda yoritilgan. Jumladan, Yevropa adabiyotida yaratilgan Monteskening "Fors xatlari", J.J.Russoning "Yuliya yoki yangi Eloiza", I.V.Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari", F.M.Dostoyevskiyning "Kambag'al kishilar" kabi qator asarlar maktub shaklida yozilgan. Yangi o'zbek adabiyotida ham maktub shaklidan samarali foydalanib, bir qator adiblarimiz qissa va romanlar yaratishdi. Masalan, O'.Umarbekovning "Sevgim, sevgilim", O'.Hoshimovning "Cho'l havosi", X.Do'stmuhammadning "Hijronim mingdir

mening”, “Sen mensiz – men sensiz” qissalari maktub shaklida yozilgan bo’lsa, I.Mirzoning “Bonu” romani maktub janriga asoslangan.

Shuningdek, hammualliflar D.Quronov va boshqalar tayyorlagan “Adabiyotshunoslik lug’ati”da ham epistolyar adabiyot bировga maktub shaklida yozilgan adabiy yoki publitsistik asarlar ekani, ijodkor maktublari avvaldan (badiiy niyatda) ko’pchilikning o’qishiga mo’ljallangan badiiy yoki publitsistik asar sifatida qabul qilinishi alohida ta’kidlab ko’rsatilgan.[7-362]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada analitik, qiyosiy-tipologik ilmiy metodlaridan foydalanildi.

**Tahlillar va natijalar.** Epistolyar adabiyot antik davrlarda yaratilgan. Xususan, bu o’rinda antik yunon va rim adabiyotida maktub yozishga jiddiy e’tibor berilgani, bu davrda shakllangan notiqlik san’ati, oratorlik, ritorika fanining rivojlanishida faylasuf notiqalar Demosfen, Epikur, Sitseron, Senekalarning yuzlab maktublari epistolyar adabiyotning qadimiy namunalaridir. Maktub janri antik dunyo adabiyotida paydo bo’lib, ming yillik tarixiy taraqqiyotni bosib o’tdi. O’rta asrlarga kelib Fotiy, Avgustin, Lyuter kabi diniy arboblarning maktubning didaktik imkoniyatlaridan foydalanib, pand-nasihatchilik shaklida zamondoshlariga qarata maktublar yozishdi. Epistolyar janr Sharq adabiyotida ham o’ziga xos taraqqiyot yo’lini bosib o’tdi. Sharqda maktub janrining antik namunasi sifatida Kultegin va Bilga xoqonning avlodlarga qarata yozgan toshbitiklarini ko’rsatishimiz mumkin. Shuningdek, o’zbek mumtoz adabiyotida Mahmud Qoshg’ariyning “Devoni lug’atit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarlarida maktub janridan foydalanilgan. Maktublar klassik adabiyotda ikki xil yo’lda yaratilgan, ya’ni, she’riy va nasriy shaklda. Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Xo’jandiyning “Latofatnoma”, Said Ahmadning “Taashshuqnoma”, Yusuf Amiriynning “Dahnoma”, Sayyid Qosimiyning “Sadoqatnoma” hamda “Haqiqatnoma” asarlari noma janrining klassik namunalaridir.

XV asrga kelib o’zbek adabiyotida xatlarni to’plab, “Munshaot”lar yaratish urfga kirdi. Binobarin, bunga A.Navoiyning “Munshaot” asarini misol keltirish mumkin. Adabiyot taraqqiyotining keyingi davrlarida shaxslararo bevosita yozishmalar ham ahamiyatini yo’qotmagani holda, adabiy asarlarni maktub shaklida yozish keng ommalashdi.

Rus adabiyotshunosi B.V.Tomashevskiy “Adabiyot nazariyasi” kitobida roman janrining ko’rinishlari haqida yozar ekan, epistolyar shakl Yevropa adabiyotida XIX asr oxiri XX asr boshlarida paydo bo’lganligini adabiy dalillar bilan ko’rsatadi: “ Agar hikoyachilik tizimini muhim xususiyat sifatida e’tiborga olsak, uni quyidagicha tasniflash mumkin bo’ladi: 1) mavhum hikoyachilik, 2) roman-kundalik, 3) roman – topilgan qo’lyozma (masalan, Rayder Haggard romanlari), 4) roman – qahramon hikoyasi (“Manon Lesko”, muallifi abbat Prevo (Antoine François Prévost)), 5) epistolyar roman (qahramonlarning maktublari shaklida yozilgan asar – XIX asr oxiri va XX asr boshlarida

keng tarqalgan shakl sanaladi. Russo, Richardson romanlari va Dostoyevskiyning “Kambag‘allar”ini shular qatoriga qo‘shish mumkin). Mazkur shakllar ichida, ehtimol, faqat epistolyar janrgina bunday romanlarni alohida sinf sifatida ajratishga asos bo‘la oladi. Chunki epistolyar shakl xususiyatlari syujet rivoji va mavzuni badiiy jihatdan qayta ishlashda mutlaqo o‘ziga xos usullarni yuzaga keltiradi (fabula (voqea) rivoji uchun ma‘lum darajada cheklangan shakl, sababi yozishmalar birga yashamaydigan yoki favqulodda g‘ayritabiiy sharoitlarda yashab, yozish imkoniga ega bo‘lgan kishilar o‘rtasida kechadi). Shuningdek, bu adabiy bo‘lmagan materiallarni kiritish uchun erkin shakl hamdir. Chunki maktub shakli roman tarkibiga, hatto butun boshli risolalarni ham olib kirishga imkon beradi.”[5-166] Olim epistolyar shaklning tug‘ma erkinligini, bu esa roman qahramonlari o‘rtasida ochiq va samimiy munosabat o‘rnatishga imkon berishini, maktublar yirik nasriy roman janrida motirovka vazifasini o‘tashini qayd etib o‘tadi. Masalan, O‘.Hoshimovning 1964-yilda yaratilgan “Cho‘l havosi” qissasida bosh qahramon cho‘lquvar yigit Botir tomonidan uning sevgilisi Ziyodaga maktublar yo‘llanadi. Maktub janrining eng muhim xususiyatlaridan biri adresatlilikdir. “Cho‘l havosi” qissasida ham bosh qahramon Botirning sevgilisiga yozgan maktublari asar syujetini tashkil qilgan. Xuddi shuningdek, nemis adibi I.V.Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” romani ham rassom yigit Verterning sevgilisi Charlottaga yozgan xatlaridan iborat. Odatda maktub janri qahramonning ichki dunyosini teran ochib berishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham epistolyar adabiyot namunalarida sentimental kayfiyatning quyuq berilishi ko‘zga tashlanadi. Yosh tadqiqotchi M.Niyazova “Yosh Verterning iztiroblari” asari haqida shunday yozadi: “I.V.Gyote zamoniga kelib, Germaniyada sentimental adabiyot haqiqatda ulkan adabiy-estetik hodisaga aylandi. Gyote o‘z asarini yozishda o‘zigacha mavjud milliy manbalarga tayangani bilan birgalikda, boshqa yevropalik yozuvchilar, xususan, ingliz va fransuz sentimentalistlarining ijodi ham unga sezilarli ta‘sir o‘tkazgan. J.Russoning “Yuliya yoki yangi Eloiza” hamda I.V.Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” sentimental romanlari Russo va Gyotening zamondoshlari tuyg‘ular dunyosida nafis she‘riyatga yaqinlik, inson qalbini hayajonga solishga qodir samimiyat, hayot sur‘atining jozibasi, bosh qahramon kechinmalarining yuqumli ekanligi kabi ko‘plab xususiyatlari bilan tipologik uyg‘unlik kasb etadi. I.V.Gyote iste‘dodli, sentimental kayfiyatdagi yosh yigitning lirik ifodalarga boy kundaliklari shaklidan foydalanishda bolalik yillaridayoq kuchli ta‘sirlangan asari “Yuliya yoki yangi Eloiza” romanining shakl va uslubiga ergashadi. Iffat, sevgi hamda vasvasa o‘rtasidagi kurashda halok bo‘luvchi qahramon taqdirini ifodalash, asarni epistolyar uslubga qurishda Russo izidan boradi. Maktublarni esa, o‘z davrining milliy-mental muammolari, ma‘rifiy g‘oyalari bilan ziynatlaydi.”[1-96]

Shu ma‘noda O‘.Hoshimovning Botiri bilan I.V.Gyotening Verter obrazini taqqoslashimiz mumkin.

Rus yozuvchisi A.P.Chexovning ‘Vanya’ hikoyasida ham qahramonning ichki dunyosi bobosi Konstantin Makarichga yozgan xati bilan juda ta’sirchan chiqqan.[6-138] Hikoya qahramoni to‘qqiz yoshli Vanka Jukov. Mazkur hikoya boshdan oyoq maktubga asoslanmagan, balki, muallif bayoni ichida bobosiga maktub yozayotgan Vankaning og‘ir turmush tarzi bayon etiladi. U xo‘jayini tomonidan tinimsiz urib, tepkilanadi. Yetim bola Vanka o‘z xatida bobosiga yolvorib uni olib ketishini so‘raydi. Buyuk hikoyanavis A.P.Chexov bosh qahramonning bola bo‘lishiga qaramasdan boy xonadonda xizmatkor bo‘lib yurishini, turli uy yumushlarini qilishiga qaramasdan xo‘jayini tomonidan kaltaklanishini bobosiga yozgan xati orqali kitobxon qalbiga chuqur ta’sir o‘tkazishga erishadi. Yozuvchi hikoya ichida yetim bolaning yig‘lab yozgan maktubini keltirish orqali asarda yangi badiiy kompozitsiya yaratadi. Vanyaning maktubi orqali adib kitobxon qalbida chuqur achinish kayfiyatini paydo qiladi. ‘Vanya’ hikoyasi shunchaki yetim bola hayotiga kitobxonni achintirish uchun yozilmagan, balki, adib bu hikoyada ijtimoiy tengsizlik, yetimlik va sargardonlik, hayotning beshafqatligi, adolatsizlik haqida yozadi.

Badiiy adabiyotda she’riy maktublar ham uchraydi. Jumladan, S.Yeseninning ‘Onamdan maktub’, ‘Singlinga xat’, ‘Ayolga maktub’ she’rlari maktub asosiga qurilgan. Shoirning ‘Onamdan maktub’ she’ri onasidan kelgan maktubi va unga lirik qahramonning javob maktubidan iborat. Ona-bolaning bir-biriga yozgan maktublari yuksak darajadagi badiiy-estetik ta’sirchanlikka sabab bo‘lgan. Masalan, onaning maktubi quyidagicha boshlanadi:

*‘Ko‘zimiz to‘rt bo‘ladi,  
Bolam, kelaqol.  
Yaxshiydi bayramga  
Kelsang, har qalay.  
Otangga ishtonlik,  
Menga jun ro‘mol  
Olakel, bizlarda  
Kamchilik talay.’*[2-65]

O‘g‘ilning javob xati esa quyidagicha boshlanadi:

*‘Aziz onaginam,  
Bo‘lgin salomat.  
Mehr-u shafqatingni  
Sezib turibman.  
Sen zarra tasavvur  
Qilmassan faqat,  
Nima deb dunyoda  
Yashab yuribman.’*[2-69]

S.Yeseninning she’riy maktub janridagi ijodiy izlanishlari o‘zbek adabiyotining iste’dodli ijodkorlari U.Nosir (‘Birinchi xat’), E.Vohidov (‘Do‘stlarga maktub’, ‘Kelajakka maktub’), A.Oripov (‘Beruniyga maktub’), U.Azim (‘Onamga maktub’, ‘Yirtilgan xat parchasi’, ‘Ayol maktubi’, ‘Boychechak’(Opasiga maktub), ‘Alpomish

xususida shoir do‘stimga maxfiy xat”), H.Xudoyberdiyeva (“Yolg‘iz ayol xati”) lirikasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi.

O‘zbek she’riyatida S.Yeseninning izdoshi deb nom chiqargan U.Nosir “Birinch xat” she’rida o‘zining qora qismatini bilgandek xayolan tug‘ilmagan bolasiga maktub yo‘llab shunday yozadi:

“Havaslarim bir ushalsin, deb,  
Senga xat yozgali o‘tirdim –  
Yuragimdan dur-gavhar to‘kdim,  
Havaslarim bir ushalsin, deb.”[3-53]

Lirik qahramon xayolan kelajakni ko‘radi, ochiqrog‘i, tug‘ilmagan o‘g‘lining kelajagini tasavvur etadi. Shoirning tasavvurida o‘g‘li farovon va dorilomon zamonda yashaydi. Shunday zamonda yashayotgan o‘g‘liga u qiyin, ochlik, vabo kasalligi tarqagan bir zamonda yashagan otaning hayoti va yozayotgan xati farzandi uchun bir ertak bo‘lib tuyuladi. U.Nosirning “Birinch xat” she’rida shoirning tug‘ilmagan farzandiga yozgan maktubi uning o‘ziga xos ijodiy yangiligi, badiiy topilmasi sifatida ko‘rinish beradi.

**Xulosa.** Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkin, maktub janrining badiiy genezisi jahon va o‘zbek adabiyotida antik davrlarga borib taqaladi, maktublar dastlab hukmdorlarning avlodlarga yozgan toshbitiklari, ritorika fani bilan shug‘ullangan faylasuf va notiqalar uchun falsafiy mushohadalar bayoni tarzida vujudga kelgan. Bundan tashqari, maktublar didaktik badiiy asarlar tarkibida pand-nasihat tashuvchi badiiy vositaga aylangan. Yevropa ma’rifatchilik davriga kelib esa, maktub janrlarning badiiy qolipi, shakli sifatida namoyon bo‘lgan. Jumladan, I.V.Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari”, J.Russoning “Yuliya yoki yangi Eloiza” asarlarida o‘quvchiga tez yuquvchan sentimental kayfiyatni emotsional va jonli yetkazib beruvchi janrga aylandi. Maktublar G‘arb va Sharq adabiyotida ham nasriy, ham she’riy shaklda rivojlandi. Maktub janrining paydo bo‘lishidan to hozirgacha adabiy davrlar hamda adabiy siymolar, milliy adabiyotlar taraqqiyotida bosib o‘tgan deyarli ming yillik tarixi mavjud. Maktublar nafaqat badiiy adabiyot janri hisoblanadi, balki, dunyo va o‘zbek adabiyotida uning publitsistik, falsafiy, adabiy-tanqidiy, siyosiy, shaxsiy kabi bir qancha turlari ham mavjud. Ularning har biri alohida o‘rganish hadafiga aylanishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Niyazova M. “Yosh Verterning iztiroblar” sentimental romani kompozitsiyasida maktubning o‘rni – 94-98 b. / <https://doi.org/10.5281/zenodo.14160342>
2. Есенин С. Безорининг кўнгил изҳори. – Тошкент: Адиб, 2013. – 256 б.
3. Носир У. Унутмас мени боғим. – Тошкент: Гафур Гулом, 1988. – 304 б.
4. Тимофеев Л. И., Тураев С. В. Словарь литературоведческих терминов. – Москва: Просвещение, 1974. – 513 с.
5. Томашевский Б.В. Теория литературы поэтика. – Москва: Аспент пресс, 1999. – 203 с.
6. Чехов А.П. Ваня (Боту таржимаси) / Боту. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 192 б.
7. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – 406 б.